BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Orınbasar Saparov Baxievich
Qoraqalpog‘iston Respublikasi pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish jarayonini interfoal metodlar tashkil etish masalalari to‘g‘risida so‘z etiladi.

Kalit so‘zlar: Kichik maktab yosh,o‘quv faoliyat, innovatsiya, pedagogoik texnoloiya, informatsion-kommunikatsiya.

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayoti zarurati bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or texnologiyalarini joriy qilish, ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tariladi.

Ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash ta’lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi **[1]**

Kichik maktab yoshi - bu boshlang‘ich maktabning 1-4 sinflarida o‘qiydigan 6-11 yoshdagi bolalar. Yosh chegaralari va uning psixologik xususiyatlari ma’lum bir vaqt uchun qabul qilingan ta’lim tizimi, aqliy rivojlanish nazariyasi va yoshga bog‘liq psixologik davrlashtirish bilan belgilanadi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘qitish va tarbiyalashning natijalaridan biri, bolalarni zamonaviy kompyuter texnologiyalarini egallashga va ularning yordamida olingan

axborotlarni o‘z bilimini oshirishga qo‘llay olishga tayyor bo‘lishlari kerak.Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi amalda kichik sinf o‘quvchilarini o‘qitishda turli strategiyalarni qo‘llashiga to‘g‘ri keladi. Va birinchi navbatda o‘quv–tarbiyaviy jarayonda information-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanishga o‘tishga to‘g‘ri keladi. Boshlang‘ich sinf darslarida information-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish, o‘quvchilarni o‘rab turgan olam axborot oqimlarida yo‘l topa olish qobiliyatini rivojlanishiga, axborot bilan amaliy usullarda ishlay olish, zamonaviy texnik vositalar yordamida axborotlar bilan almasha olish tajribasini ortishiga olib keladi. Boshlang‘ich maktab darslarida information-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish o‘qitishning tushuntiruvchi - ko‘rgazmalilik usulidan ishchanlik usuliga o‘tishga yordam beradi va unda bola o‘quv jarayonining faol sub’ektiga aylanadi. Bu o‘quvchilar bilimni ongli o‘zlashtirishini shartlab qo‘yadi. Boshlang‘ich maktabda information-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish:

- o‘quvchilarda bilish jarayonini faollashtirishga;
- darslarni yuqori estetik darajada(muzikali, animatsiyali) o‘tishga;
- turli darajali topshiriqlarni qo‘llash yordamida, xar bir o‘quvchiga individual yondoshishga yordam beradi.

Demak, ishning dolzarbligini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matnli masalalarni erkin yecha olishni uddalashni shakllantirish uchun ta’lim jarayoniga information-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy qilish zarurati shartlab qo‘ydi. Kichik yoshdagi bolalarga matematikani o‘qitish jarayonida information- kommunikatsiya texnologiyalardan tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan foydalanish ularni matnli masalalarni tushungan holda yecha olishga o‘rgatadi, darsning mahsuldorligi va samaradorligini oshiradi, matematikaga qiziqishni kuchaytiradi va qo‘llab quvvatlaydi, shuningdek bilish jarayoni, fikrlash, diqqat, tasavvur qilish va fantaziyani rivojlantiradi.

Muammo bilan bog‘liq mavjud ishlarni tahlili shuni ko‘satmoqdaki matnli masalalarni yechish jarayoni – bu masalani o‘qiy bilish va tushunish, masala shartini va so‘ralayotgan narsani ajrata olish; masalani yechish rejasini tuzish, ma’lum berilganlar va noma’lumlarni (masala modelini qarash yoki fikr yuritish yo‘li bilan) bog‘lash; talabni qondirish, masaladagi savollarga (tajriba-sinov, arifmetik, algebraik, geometrik, mantiqiy kabi turli usullar bilan) javob topish; topilgan yechim to‘g‘riligini aniqlash va agar xato-kamchiliklar bo‘lsa ularni tuzatish. O‘quvchilarda masalani yechishda shakllanadigan bilimlarni amalga oshirish uchun o‘qituvchi masalani yechish rejasidan foydalanadi. Ko‘pincha bolalar harakat bilan bog‘liq bo‘lgan matnli masalalarni yechishda xatoga yo‘l qo‘yadilar, shuning uchun o‘qituvchi bunday hollarda multimediyali ko‘rinishlardan foydalanadi. SHuningdek, ko‘rgazmali rasmlar,

tablitsa, sxema va diagrammalar tuzish kabi modellashtirish usullaridan ham foydalanadilar. **[2]**

Shunday qilib boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matnli masalalarni erkin yecha olishni uddalashni shakllantirish uchun ta’lim jarayoniga information-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy qilish zamonaviy boshlang‘ich maktab dolzarb muammosi xisoblanadi. Bugun boshlang‘ich sinf o‘qituvchi ixtiyoriy predmetni information- kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanib o‘ta olishi kerak. Undan foydalangan holda dars o‘tish degani – bu ko‘rgazmali, rangli, axborotli, interfaol, o‘qituvchi va o‘quvchining vaqtini tejash, o‘quvchiga o‘z tempida ishlashga imkon berish, o‘qituvchiga o‘quvchilar bilan differentsiallashgan va individual ishlash imkonini berish, o‘qitish natijalarini nazorat qilish va tez baholash imkoniyatlarini beradi.

Umuman olganda boshlang‘ich sinflarda maqsad sari aniq natijaga erishishlaridagi faoliyatlarini tizimlashtirishda, o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialining mazmunini to‘liq o‘zlashtirishiga erishishlarida, o‘quv jarayonining har bir bosqichida amalga oshiriladigan ishlar ayniqsa o‘qituvchi tomonidan o‘qitish usul va texnologiyalarning to‘g‘ri tanlanishi talim samaradorligiga ijobiy tasir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar).– T.: Iste’dod, 2010.-yil

2. M.Zufarova «Pedagogik psixologiya» O‘quv qo‘llana Fergana-2007.

3. F.I.XAYDAROV, N.I.XALILOVA «Umumiy psixologiya» Toshkent-2010.